



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldashaeva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldashaeva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|----|
| KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI..... | 12 |
| I. R. Berdikulova | |
| TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI..... | 16 |
| Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li | |
| Turobova Hulkar Rustamovna | |
| O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH..... | 24 |
| Davletov Ikrom Raximberganovich | |
| VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI..... | 33 |
| Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich | |
| СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ | 38 |
| Абдуллаева М.Б. | |
| AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI..... | 44 |
| Murodov Sherzodbek Murod o'g'li | |
| RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI..... | 51 |
| Kalandarova Elnura Muzaffar qizi | |
| TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH..... | 55 |
| Niyozov Zuxur Davronovich | |
| Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li | |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО | 58 |
| Худойкулова Дилора Дилмуродовна | |
| SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI..... | 64 |
| Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi | |
| XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 71 |
| Mavlyanova Dilobar Maxkamovna | |
| DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH | 77 |
| Karimova Dilafruz Sadridin qizi | |
| МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ..... | 82 |
| Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи | |
| AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI | 89 |
| Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna | |
| Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi | |
| JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI | 94 |
| Otarbayev Zamir Zairovich | |



| | |
|---|-----|
| SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI | 100 |
| Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich | |
| ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 107 |
| Дониёрова Зухрабону Алишер кизи | |
| TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI..... | 113 |
| Xo'jamov Akbar Bahriddinovich | |
| KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI..... | 118 |
| Djumayev Askar Xaydarovich | |



KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI

Djumayev Askar Xaydarovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Raqamli iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi
E-mail: askardjumayev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada dolzarb ekologik muammolar va ularning ko'lami, insoniyat kelajagi uchun o'sib borayotgan ekologik xatarlar bayon etilgan. Bu ekologik xatarlarni bartaraf etishning ayrim, ayniqsa mamlakatimizdagi yechimlari ilmiy asoslangan holda taklif etilgan.

Kalit so'zlar: YUNEP, Global ekologik istiqbol — 7 (GEP-7), gravitatsion doimiylik, urbanizatsiya, ekotizim.

Аннотация. В статье описываются актуальные экологические проблемы и их масштабы, растущие экологические риски для будущего человечества. Предложены научно обоснованные решения по устранению этих экологических рисков, особенно в нашей стране.

Ключевые слова: ЮНЕП, Глобальная экологическая перспектива — 7 (GEP-7), гравитационная постоянная, урбанизация, экосистема.

Abstract. The article describes current environmental problems and their scale, as well as the growing environmental risks for the future of humanity. Scientifically grounded solutions have been proposed to eliminate these environmental risks, especially in our country.

Keywords: UNEP, Global Environment Outlook — 7 (GEP-7), gravitational constant, urbanization, ecosystem.

KIRISH

BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP)ning 2025-yilgi yangi hisobotida ta'kidlanishicha, agar insoniyat o'sib borayotgan ekologik inqirozlarni bartaraf etish bo'yicha zarur choralarini o'z vaqtida amalga oshirmasa, kelajakda haroratning ortishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, ayrim biologik turlarning yo'qolishi hamda havo sifatining yomonlashuvi kabi ekologik xavflar kuchayishi mumkin. "Global ekologik istiqbol — 7" (GEI-7) hisobotining yettinchi nashrida kelgusi o'n yilliklarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolar shu tarzda tavsiflanadi. Shu bilan birga, mualliflarning ta'kidlashicha, mamlakatlar iqlim o'zgarishi, tabiat va biologik xilma-xillikning yo'qolishi, shuningdek, ifloslanish va chiqindilar bilan bog'liq muammolarga qarshi o'z vaqtida muhim choralar ko'rsa, eng salbiy prognozlarning oldini olish imkoniyati mavjud.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi nafaqat respublikamiz oldida turgan mavjud ekologik muammolarni anglash, balki atrof-muhit holati va jamiyatdagi aholi sonining o'sishi haqidagi ma'lumotlarga tayanib, ushbu muammolarni bartaraf etishning ilmiy asoslangan yo'llarini taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) iqlim o'zgarishini insoniyat salomatligiga tahdid soluvchi asosiy omil sifatida ko'radi. Tashkilotning yangilangan axborot byulleteniga ko'ra, iqlim inqirozi tibbiyotdagi ko'p yillik taraqqiyotni yo'qqa chiqarmoqda va tengsizlikni kuchaytirmoqda, bu esa odamlarning jismoniy va ruhiy farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda [1].

JSST o'limning ko'payishini iqlim o'zgarishining inson salomatligiga asosiy ta'siri deb hisoblaydi. Ularning fikricha, 2030-yildan 2050-yilgacha iqlim o'zgarishi har yili 250 000 ga yaqin qo'shimcha o'limga olib kelishi kutilmoqda [1]. Odamlar o'limining asosiy sabablari issiqlik stressi, oziq-ovqat zaxiralarning kamayishi, to'yib ovqatlanmaslik, shuningdek, bezgak, diareya va boshqa yuqumli kasalliklarning ko'payishi bilan bog'liq bo'ladi.

Ular zaharli chiqindilar, karbonat anhidrid va PM2.5 ning ko'payishi, ekstremal ob-havo va kuchli issiqlik to'lqinlari, issiqlik zarbalari, qurg'oqchilik va suv toshqinlari tufayli havoning ifloslanishini asosiy xavf omillari deb



hisoblaydilar, bu esa hayotni ta'minlash tizimlarini buzadi, jarohatlarning ko'payishiga va suv orqali yuqadigan kasalliklarning tarqalishiga olib keladi hamda har yili millionlab odamlarning hayotiga zomin bo'ladi.

Ularning fikricha, qochqinlar soni ko'payib, migratsiya kuchaymoqda. Mutaxassislarning fikricha, ekologik muammolar va yashash joylarining yo'qolishi kelajakda 1,2 milliardgacha odamni yashash joyini o'zgartirishga majbur qilishi mumkin.

Professor V. Ye. Chub o'zining fundamental monografiyasida O'zbekistonda o'rtacha yillik haroratning oshishi global ko'rsatkichlardan oldinda ekanligini isbotlaydi [2]. Bu jarayonning asosiy oqibatlarini muzliklar maydonining qisqarishi, tog' daryolari oqimining o'zgarishi va daryolarda, ayniqsa, Amudaryo havzasida haddan tashqari suv tanqisligi xavfining ortishidir. Shu munosabat bilan noqulay agroiklimiy sharoitlar yuzaga keladi, ya'ni vegetatsiya davrining uzayishi, lekin bunda bug'lanishning ortishi va tuproqdagi nam tanqisligi yuzaga keladi, bu esa qishloq xo'jaligi ekinlarining moslashishini talab qiladi.

Olimning fikricha, gidrometeorologik jarayonlar o'zgarimoqda, ya'ni so'nggi paytlarda nafaqat respublikamizda, balki Yevroosiyo mintaqasida sodir bo'layotgan sel, suv toshqini, qurg'oqchilik va issiqlik to'lqinlari kabi tabiiy ofatlar soni ortib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda global va mintaqaviy iqlim o'zgarishi jarayonlari, ekologik xavflar hamda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyatini ilmiy asoslash maqsadida tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy umumlashtirish va hujjatlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (YUNEP), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Jahon resurslari instituti hamda O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarida keltirilgan ma'lumotlar tashkil etdi. Shuningdek, iqlim o'zgarishining suv resurslari, qishloq xo'jaligi, biologik xilma-xillik va aholi farovonligiga ta'sirini baholashda statistik ma'lumotlarni taqqoslash, ekologik-iqtisodiy yondashuv hamda prognoz ko'rsatkichlarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Butun hukumat va butun jamiyatning sa'y-harakatlari tufayli insoniyat hali ham vaziyatni o'zgartirishi mumkin, ammo agar zarur choralar o'z vaqtida amalga oshirilmasa, milliardlab odamlar uchun ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy xavflar ortishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi paytda bunday ekologik alomatlar Hindiston, Malayziya, Indoneziya, Afrika mamlakatlarida va Lotin Amerikasi mamlakatlarining janubiy hududlarida keskin namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarini ham yaqin kelajakda bunday ekologik alomatlar kutmoqda.

"Global ekologik istiqbol (GEI) — 7" tashkiloti tomonidan 2050-yilga borib, global isishni keltirib chiqaradigan issiqxona gazlari chiqindilari yiliga 75 milliard tonnagacha oshishi bashorat qilinmoqda — bu bugungi darajadan deyarli 50 foizga ko'pdir [3]. Bu iqlimni beqarorlashtiradi va 2050-yilga kelib Yerning deyarli barcha aholisiga — taxminan 9,2 milliard kishiga ta'sir ko'rsatishi kutilayotgan issiqlik to'lqinlari sonining keskin oshishiga olib keladi. Sayyoramizning deyarli hech bir burchagi haddan tashqari issiqlikdan chetda qolmaydi.

2050-yilga borib, insoniyat Yer qa'ridan yiliga 165 mlrd. tonna xomashyo qazib olishi mumkin. Bu 2020-yillarga nisbatan 60 foizdan ortiq ko'pdir. Global ekologik istiqbol tashkilotining (GEP-7) ma'lumotlariga ko'ra, ushbu barcha metallar, minerallar va qazilma yoqilg'ilarni qazib olish ko'plab tabiiy hududlarga zarar yetkazishi, iqlim o'zgarishini kuchaytirishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishini tezlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, milliard tonnalab qazib chiqariladigan neft va uni qayta ishlab chiqariladigan neft mahsulotlari, gaz va iflos yoqilg'i hisoblangan toshko'mirning sanoat tarmoqlarida va transport tizimida ishlatilishi natijasida ular issiqlik gazi SO₂ ga aylanib, havoni ifloslantiradi hamda issiqxona samarasini ko'paytiradi. Oqibatda Yerning massasi kamayadi, gravitatsion doimiylik buziladi, ya'ni Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi, Quyosh atrofida ellips shaklida aylanishi buzilishi mumkin, degan gumonlar mavjud.

Global ekologik istiqbol tashkilotining (GEP-7) ta'kidlashicha, 2050-yilga borib, birgina iqlim o'zgarishi global yalpi ichki mahsulotning har yili 4 foizga qisqarishiga olib kelishi kutilmoqda [3]. Yer haroratining ko'tarilishi va inqirozning chuqurlashishi bilan bu ko'rsatkich 2100-yilga kelib hayratlanarli 20 foizga yetishi mumkin. Bu esa 1929–1933-yillardagi Buyuk depressiya davrida Amerika Qo'shma Shtatlari boshidan kechirgan iqtisodiy pasayishdan biroz kamroq bo'ladi. Ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi, havoning ifloslanishi va tabiatdagi bioxilma-xillikning yo'qotilishi oqibatlarini bilan yanada kuchayadi. Natijada bu jarayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini keskin namoyon bo'la boshlaydi, ya'ni aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bunday jarayonlardan ko'proq ta'sirlanishi mumkin va yuqori daromadli qatlamlar bilan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar o'rtasidagi tafovut yuzaga kelishi mumkin.



“Global ekologik istiqbol — 7” (GEP-7) tashkilotining hisobotida 2050-yilga borib, havo ifloslanishi biroz kamayishi bashorat qilingan. Ammo o’sib borayotgan urbanizatsiya tufayli havodagi ifloslantiruvchi moddalar ta’siriga duchor bo’lgan odamlarning mutlaq soni ortadi. 2050-yilga kelib, 4,2 milliard kishi doimiy ravishda bitta o’ta muammoli modda — PM2.5 ning xavfli konsentratsiyalaridan nafas oladi [3] (PM2.5 asosan yonish jarayonlari natijasida hosil bo’ladi: avtomobil chiqindi gazlari, ko’mir, torf, yog’och yoki sanoat yoqilg’isini yoqishdan va yana qurilish ishlari hamda o’rmon yong’inlari changlaridan). Hisobotga ko’ra, havo ifloslanishi bilan bog’liq o’lim 2060-yilga borib jahon iqtisodiyotiga 18–25 trillion AQSh dollariga tushadi.

Ekologik muammolarni hozirdan bartaraf etish boshlanmasa, dunyodagi 1 mln. km² o’rmonlar, torzorlar va boshqa tabiiy hududlar yo’qoladi. Bu, asosan, go’sht iste’molini tobora ko’proq afzal ko’rayotgan dunyo aholisini boqish uchun zarur bo’lgan ekin maydonlarining kengayishi bilan bog’liq. Ekotizimlarning yo’qolishi tufayli sayyoradagi turlarning o’rtacha nisbiy soni — hayotning xilma-xilligi va tarqalishini aks ettiruvchi yagona ko’rsatkich — 3 foizga kamayishi prognoz qilinmoqda.

“Global ekologik istiqbol — 7” (GEP-7) tashkiloti olimlarining ta’kidlashicha, agar iqlim o’zgarishiga qarshi choralar ko’rilmasa, 2050-yilga borib yana 1,1 milliard kishi kuchli yomg’irlar ta’siriga va qo’shimcha 900 million kishi kuchli qurg’oqchilikka duchor bo’ladi. Iqlimning bu ikki tomonlama zarbasi 132 milliongacha odamni qashshoqlashtiradi va 2040-yilga kelib yana 24 million kishini ocharchilikka duchor qiladi. 2050-yilga kelib, 3,3 milliard kishi — sayyoramiz aholisining uchdan bir qismi — suv tanqisligiga duch keladi.

Ushbu tashkilot (GEP-7) olimlarining ogohlantirishicha, dunyo bir qator iqlim chegaralariga yaqinlashmoqda, ulardan o’tgandan so’ng ortga qaytish mumkin bo’lmazligi mumkin. Grenlandiya va G’arbiy Antarktidaning muzlik qalqonlari yemirilishi mumkin, bu esa dengiz sathining 10 metrga ko’tarilishiga olib keladi. Doimiy muzliklarning erishi katta hajmdagi metan — kuchli issiqxona gazini ajratib chiqarishi mumkin, bu esa isishni keskin tezlashtiradi. Amazonka tropik o’rmonlari savannaga aylanib, sayyorani eng muhim uglerod yutuvchilardan biridan mahrum qilishi mumkin. Deyarli barcha iliq suv marjonlari yo’q bo’lib ketadi, bu esa suvosti ekotizimlariga jiddiy salbiy ta’sir ko’rsatadi va butun dunyo bo’ylab baliqchilikni xavf ostiga qo’yadi. Hatto okean oqimlari ham zarar ko’rishi mumkin, bu esa iqlim tizimi barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Yuqorida ko’rsatilgan barcha muammolarni yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o’tish orqali hal qilish mumkin, lekin alohida olingan mamlakatda emas, balki butun jahon xo’jaligi bo’yicha, chunki bunday o’tish global xususiyatga ega. Bu jarayonni agrosanoat majmuasidan, aniqrog’i, agroo’rmonchilikdan, tuproq eroziyasining oldini olish va namlikni saqlash uchun ihota daraxtzorlari barpo etishdan boshlash zarur. O’zbekiston Respublikasi uchun bu tadbirlarni XX asrning 90-yillari oxirlaridayoq yoki hech bo’lmaganda XXI asr boshlaridayoq bu tadbirlarni boshlash maqsadga muvofiq bo’lardi. Garchi mintaqamiz iqlimining o’zgarishi, aniqrog’i, isishi bilan bog’liq vaqt biroz qo’ldan boy berilgan bo’lsa-da, hali ham kech emas.

O’zbekistonda so’nggi o’n yilliklarda qishloq xo’jaligi uchun suv tanqisligi muammosi yuzaga keldi. Qishloq xo’jaligini rivojlantirish ko’proq suvni talab qiladi, intensiv qishloq xo’jaligiga o’tish esa yanada ko’proq suvni talab qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda yerosti suvlaridan foydalanish ko’paymoqda. Bu esa sizot suvlari sathining yanada pasayishiga olib keladi. Istiqbolda qishloq xo’jaligida hosildorlikni oshirishga suv iste’molini mutanosib ravishda oshirish hisobiga erishib bo’lmaydi.

Jahon amaliyoti shuni ko’rsatadiki, qishloq xo’jaligida suvdan samarali foydalanish usullaridan foydalanish talab etiladi. Ba’zi hisob-kitoblarga ko’ra, 1 m³ toza suv mahsulot yetishtirish hosildorligini 50–80% ga oshiradi [4]. Qishloq xo’jaligida toza suv iste’molini kamaytirish uchun yuqori samarali sug’orish texnologiyalarini qo’llash, yomg’ir suvini drenaj yordamida yig’ish, texnik suvlarni tozalash va ulardan ikkilamchi foydalanish kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jahon resurslari instituti prognoziga ko’ra, 2040-yilga borib O’zbekiston suv tanqisligi eng yuqori bo’lgan 33 ta davlat qatoriga kiradi. Hosildorlikning pasayishi oziq-ovqat xavfsizligi va to’lov balansi uchun jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi, bu esa, shubhasiz, suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo’jaligi ekinlarini yetishtirishda resurslarni tejaydigan yuqori texnologiyalarni qo’llashni taqozo etadi [5].

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda “Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda ‘yashil qoplamalar’ — himoya o’rmonzorlari barpo etish bo’yicha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 1031-son qaroriga muvofiq, mamlakatimizda suv tanqisligini yumshatish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda o’rmonzorlarni ko’paytirish, xususan, Orol dengizining qurigan tubida himoya o’rmonzorlari barpo etish muhim yo’nalishlardan biri hisoblanadi [7].

Ayniqsa, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklashda agroo’rmon xo’jaligini rivojlantirish muhim rol o’ynaydi. Agroo’rmonchilik tuproq sifatini yaxshilash maqsadida o’rmonchilik va qishloq xo’jaligini mutanosib ravishda rivojlantiradi. Daraxtlar issiqxona gazlarini ushlab qoladi, kislorod ishlab chiqaradi, yomg’ir suvini to’playdi, tuproq eroziyasining oldini oladi va gumus hosil bo’lishi uchun tabiiy o’g’itlar beradi. Buning uchun daraxt barglaridan organik o’g’it sifatida keng foydalanish yuqori samara beradi.

Yana bir bor ta’kidlash kerakki, mamlakatimizda suv tanqisligini yumshatishning muhim yo’llaridan biridir o’rmonlarni ko’paytirishdir. Ayniqsa, degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklashda agroo’rmon xo’jaligini



rivojlantirish muhim rol o'ynaydi. Agroo'rmonchilik tuproq sifatini yaxshilash maqsadida o'rmonchilik va qishloq xo'jaligini mutanosib ravishda rivojlantiradi. Daraxtlar issiqxona gazlarini ushlab qoladi, kislorod ishlab chiqaradi, yomg'ir suvini to'playdi, tuproq eroziyasining oldini oladi va gumus hosil bo'lishi uchun tabiiy o'g'itlar beradi.

Buning uchun daraxt barglaridan organik o'g'it sifatida keng foydalanish yuqori samara beradi. O'rmon va chakalakzorlarning ko'payishi nafaqat yerdagi namlikning saqlanishiga, balki uning kengayishiga, mintaqaviy iqlimning o'zgarishiga, suv resurslarining ko'payishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, suv resurslarini ko'paytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- agroo'rmonlar barpo etishda tutzorlarni ko'paytirish va yerlarni ihotalashda ko'p qatorli ihota daraxtlari ekilishiga sabab, tut daraxtining barglari pilla yetishtirish uchun asosiy xomashyo hisoblanadi;
- o'rmonzorlar barpo etishda pishiq, mustahkam yog'ochli va tez o'suvchi mevali daraxtlar (o'rik, yong'och, bodom, qizil do'lana, balx tutlari va boshqalar) sonini ko'paytirish zarur;
- 8–10 yil davomida o'rmon barpo etish jarayonlarida samarali sug'orish texnologiyalarini tashkil etish va ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qaroriga muvofiq, qishloq xo'jaligida suv tanqisligini bartaraf etish bo'yicha quyidagi vazifalarni amalga oshirish rejalashtirilgan [6]:

- suv manbalarining qishloq xo'jaligi chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish;
- sho'rlanishga, qurg'oqchilikka va boshqa xavfli hodisalar hamda xavf-xatarlarga chidamli bo'lgan yuqori mahsuldor chorva mollari va o'simliklar turlarini (navlarini) yetishtirish, mahalliy chorva mollari turlari va o'simliklar navlari genofondini, shuningdek, madaniy o'simliklarning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlab qolish;
- O'zbekistonda Orol dengizining qurigan tubidagi o'rmonlar umumiy maydonini 60 foizga yetkazish va 10–15 yoshli saksovullar qator oralariga bir qatordan 3 metr masofada issiqsevar turang'il va gujum (qayrag'och) daraxtlari hamda hatto sho'rxok yerlarda ham o'sadigan buta shaklidagi yovvoyi jiyda daraxtlarini ekish [8];
- yirik buta daraxtlar (saksovol, yovvoyi jiyda) orasiga zich (1,5×2 m) oraliqda yovvoyi do'lana va boshqa issiqsevar, pishiq yog'ochga ega daraxtlarni ekish va ularni 8–10 yil davomida sug'orishni tashkil etish (keyin daraxtlar o'z-o'zidan namlikni saqlash hisobiga o'sadi);
- qishloq xo'jaligida suv resurslari yo'qotilishini 10 foizga kamaytirish;
- qishloq xo'jaligida suv sarfini 15 foizga (gektariga) kamaytirish;
- oqova suvlarni tozalash samaradorligini 80% gacha oshirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Vaziyatning jiddiyligiga qaramay, Yerning kelajagi hali aniq emas. Insoniyatning iqlim o'zgarishi, tabiatdagi yo'qotishlar va ifloslanish bilan kurashishga hali biroz vaqti bor. Ammo buning uchun mamlakatlarning o'z iqtisodiyotini boshqarishi, materiallar va chiqindilarni boshqarishi, energiya va oziq-ovqat ishlab chiqarishi, xomashyodan foydalanishi va atrof-muhitga munosabatida shoshilinch va misli ko'rilmagan o'zgarishlarni amalga oshirishlari talab etiladi. Buning uchun faqatgina "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga amal qilib, Rossiyaning taniqli tuproqshunos olimi Vasiliy Vasilyevich Dokuchayevning (1846–1903-yillar) iborasi bilan aytganda, "Insoniyat tabiat bilan uyg'unlikda yashashi kerak".

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" tamoyillari asosida rivojlantirish hamda tuproq eroziyasi va degradatsiyasining oldini olish uchun agroo'rmon xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish, yuqoridagi takliflar asosida foydalanilayotgan yerlarni muhofaza qilish yaqin o'n yilliklarda o'z samarasini berishi va suv tanqisligini qisman bo'lsa-da, kamaytirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Health Organization. Climate change. Fact sheet. — Geneva: WHO, 12 October 2023.
2. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на гидрометеорологические процессы, агроклиматические и водные ресурсы Республики Узбекистан. — Ташкент: VORIS-NASHRIYOT, 2007. — 132 с.
3. United Nations Environment Programme. Global Environment Outlook 7: A Future We Choose. — Nairobi: UNEP, 2025.
4. Vahobov A.V., Xadjibakiyev Sh.X. Qishloq xo'jaligini "yashil iqtisodiyot" asosida rivojlantirish muammolari // Agroiqtisodiyot. — 2017. — №1.
5. Maddocks A., Young R.S., Reig P. Ranking the World's Most Water-Stressed Countries in 2040. —



World Resources Institute, 26 August 2015.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4539502>

7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-dekabrda "Orol dengizi tubidagi suvi qurigan hududlarda 'yashil qoplamalar' — himoya o'rmonzorlari barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1031-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4662194>

8. Djumayev A.X. O'zbekistonda organik qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari // Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida xizmatlar sohasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2-qism. — Samarqand: SamISI, 2025. — B. 44–49.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>